

GENDER TENGLIK – MAS’ULIYAT VA MAQSAD MUSHTARAKLIGI**Rajabov Temur Bahrambayevich***Qo‘shko‘pir tumani Adliya bo‘limi YXKM bosh
yuristkonsulti*

Bugungi kunda mamlakatimizda turli jabhalarda olib borilayotgan keng islohotlar barcha davlatlarning diqqat-e’tiborida desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Jumladan, O‘zbekistonda gender tengligini ta’minlash, xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish hamda xalqaro hamkorlik sohasida olib borilayotgan ishlar xalqaro hamjamiyat tomonidan alohida etirof etilmoqda. Ayniqsa, davlatimiz rahbarining BMT ning 46 sessiyasida: “Biz gender siyosati masalalari borasida mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida va ishbilarmonlik sohasida ayollarning rolini tubdan oshirishga qaratilgan ishlarni qat’iy davom ettiramiz” – degan so‘zlari Xalqaro hamjamiyat tomonidan ijobiy baholangani e’tiborga molik. Keyingi 5 yilda gender tenglik masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgani, sohaga oid 25 ta qonun hujjati qabul qilinganligi ham bu borada amalga oshirilayotgan ishlarning amaliy natijasi hisoblanadi. Ma’lumki, 2019 yil 2 sentyabrda qabul qilingan “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi qonuni xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rniga qaratilgan huquqiy himoya, huquqiy kafolat sifatida ma’qullandi. Shuningdek, qonunda gender tushunchasi ham qayd etilgan bo‘lib, unga ko‘ra, gender — xotin-qizlar va erkaklar o‘rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta’lim hamda ilm-fan sohalarida namoyon bo‘ladigan ijtimoiy jihati ko‘rsatilgan. Adliya vazirligi tomonidan gender tenglikni ta’minlash bo‘yicha amalga oshirilgan ishlarga qaraydigan bo‘lsak, bugungu kunda adliya organlari va muassasalarida hotin-qizlar va erkaklar uchun barcha mehnat sharoitlari yaratilgan bo‘lib, ular teng huquq va imkoniyatlardan foydalanishmoqda. Buning natijasida Adliya organlari va muassasalarida faoliyat olib borayotgan xodimlarning 37 foizini hotin-qizlar, 63 foizini erkaklar tashkil etishining o‘ziyoq ayollarga bo‘lgan e’tiborni ko‘rsatadi. Aynan rivojlangan jamiyatning talablaridan biri erkak va ayol huquqlari tengligining ta’minlanishidir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev 2019 yilning iyun oyida Oliy Majlis Senatidagi nutqida ham ayollar haqida to‘xtalib: “Meni kishilarimizning ongida paydo bo‘lgan stereotip ko‘p o‘ylantiradi. Odatda biz ayolni avvalambor ona, oila qo‘rg‘onining qo‘riqchisi sifatida hurmat qilamiz. Bu, shubhasiz, to‘g‘ri. Ammo bugun har bir ayol oddiy kuzatuvchi emas, balki mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik o‘zgarishlarning faol va tashabbuskor ishtirokchisi ham bo‘lishi kerak”, -degan edi. Mamlakat tarixida ilk bor Senat raisligiga ayol

kishi – Tanzila Norboevaning saylanganligi ham bu fikrlar hayotda o‘z aksini topganining yaqqol isbotidir. Darhaqiqat, bugungi kunda davlat va jamoat tashkilotlari tizimida 1 300 nafardan ortiq, shu jumladan vazirlik va idoralarda 45 nafar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi hamda Vazirlar Mahkamasida 39 nafar, mahalliy davlat hokimiyati organlarida 207 nafar ayol rahbarlik lavozimlarida faoliyat yuritayotganining o‘ziyoq ayollar huquqlari qonun yo‘li bilan mustahkamlanib borayotganligini anglatadi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga 2019 yilda bo‘lib o‘tgan saylovlarda ro‘yxatdan o‘tgan saylovchilarning qariyb 50 foizdan ziyodi xotin-qizlar bo‘ldi. Shuningdek, ayollar ko‘rsatilgan nomzodlarning 41 foizini tashkil etib, bu esa O‘zbekiston Respublikasi Saylov kodeksida belgilangan 30 foizlik kvotadan ko‘p demakdir. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlarining 32 foizi xotin-qizlardan iborat ekanligi ham mamlakatimizda gender tengligiga e‘tibor nechog‘lik katta ekanligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, Senati a‘zolarining hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, mahalliy Kengashlar deputatlarining qariyb 25 foizi ham xotin-qizlardan iborat. Prezident saylovlarida ham ro‘yxatdan o‘tgan saylovchilarning qariyb 50 foizdan ziyodini xotin-qizlar tashkil etdi. Ҳақиқатдан ҳам юртимизда хотин-қизлар эъзозу эҳтиромда. Улар жамиятда барча соҳаларда фаоллик кўрсатиб, эркаклар билан бир сафда туриб меҳнат қилмоқдалар. Гендер тенгликни таъминлаш мақсадида парламент юқори палатасида Хотин-қизлар ва гендер тенглик масалалари кўмитаси, Ўзбекистон Республикасининг Гендер тенгликни таъминлаш масалалари бўйича комиссияси, Хотин-қизлар ва эркаклар учун тенг ҳуқуқ ҳамда имкониятларни таъминлаш масалалари бўйича маслаҳат-кенгашлари, Республика хотин-қизлар жамоатчилиқ кенгаши ташкил этилди. Ўзбекистон тарихида биринчи марта миллий парламентда хотин-қизлар сони Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг тавсияларига мос даражага етди. Мамлакатимиз парламенти хотин-қизлар сони бўйича дунёдаги 190 та миллий парламентлар ўртасида 37-ўринга кўтарилди. Давлатимизда хотин-қизлар бандлигини таъминлаш ва уларни тадбиркорлик фаолиятига кенг жалб қилиш мақсадида имтиёзли кредитлар ажратиш амалиёти йўлга қўйилиши натижасида бугунги кунда тижорат банклари микрокредит базаси мижозларининг 30 фоизидан ортиғини хотин-қизлар ташкил этаётир. Натижада, тадбиркорлик фаолиятини йўлга қўйган хотин-қизлар сони бир йилда 45 минг нафарга кўпайди. Ўзини ўзи банд қилган фуқароларга вақтинча меҳнат гувоҳномаларини бериш ва уларнинг иш стажини қайд этиш тартиби жорий этилиши натижасида норасмий секторда банд бўлган хотин-қизларнинг улуши 27 фоиздан ортди. Тадбиркорлик субъектларининг 20 фоизига, шу жумладан фермер

хўжаликларининг 7,3 фоизига аёллар раҳбарлик қилади. Гендер тенглик борасида ҳал қилиниши лозим бўлган муаммоларга эътибор қаратилаётгани ҳам бор гап. Масалан, таълим соҳасида хотин-қизлар ва эркаклар ўртасида кескин тафовутлар кузатилиб, бугунги кунда умумий ўрта таълим мактаблари ўқитувчиларининг 70 фоиздан ортиғини аёллар ташкил этмоқда. Таълим-тарбия соҳасига аёллар билан биргаликда эркакларни ҳам жалб қилиш масаласи кун тартибиде турибди. Жаҳон Банкнинг «Аёллар, бизнес ва қонун индекси»да мамлакатимиз 190 та мамлакат орасида 139-ўринни, АҚШнинг Джорджтаун институти томонидан юритиладиган «Аёллар, тинчлик ва хавфсизлик индекси»да 167 та мамлакат ичида 89-ўринни эгалламоқда. 2030 йилга қадар Ўзбекистон Республикасининг гендер тенгликка эришиш стратегияси қабул қилиниши ва унинг амалга оширилаётгани хотин-қизлар ва эркаклар ўртасида сиёсий, иқтисодий, ижтимоий ва бошқа соҳалардаги тенгсизликни бартараф этиш, Ўзбекистон Республикасининг халқаро майдондаги имиджини ошириш имконини беради. Гендер стратегиясининг асосий мақсади — ирқи, миллати, тили, дини, ижтимоий келиб чиқиши, эътиқоди, шахсий ва ижтимоий мавқеидан қатъий назар хотин-қизлар ва эркакларнинг ҳақиқий тенглигини таъминлашдан иборат. Бунинг ифодаси эса юртимиз аёлларининг чехрасида барқ ураётган бахтиёрлик, келажакка ишончда намоён бўлмоқда.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. О‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qarori, 28.05.2021 yildagi SQ-297-IV-son qarori
2. О‘zbekiston Respublikasi 2019 yil 2 sentyabrda qabul qilingan "Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida"gi qonuni